

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY VA BOBUR ASARLARIDA O'LАН JANRI TALQINI

Shahodatxon IMOMNAZAROVA,

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Folklor bo'limi katta ilmiy xodimi*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806367>

Annotatsiya: azkur maqolada o'lan janrining kelib chiqishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi talqini tahlil qilingan. Maqolada mazkur janrning xalq og'zaki ijodidagi o'rni va ahamiyati, uning to'y marosimlari va turli ma'naviy jarayonlardagi ijro xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, Navoiy va Bobur asarlarida o'lanning ma'naviy-estetik qadriyati va uning o'ziga xos xususiyatlari batafsil tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье исследуются происхождение, исторические этапы развития и интерпретация жанра “улан” в произведениях Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура. Рассматриваются место и значение этого жанра в устном фольклоре узбекского народа, его особенности исполнения на свадебных обрядах и в различных духовных процессах. Также подробно анализируется духовно-эстетическая ценность жанра “улан” и его уникальные черты в произведениях Навои и Бабура.

Annotation: This article examines the origins, historical development stages, and interpretation of the genre of “ulan” in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur. The study highlights the place and significance of this genre in Uzbek oral folklore, its performance characteristics in wedding ceremonies, and its role in various cultural processes. Additionally, the spiritual and aesthetic value of the “ulan” genre and its distinctive features in the works of Navoi and Babur are thoroughly analyzed.

O'lan janrining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini tadqiq etishda qadimgi yozma manbalar, mumtoz adabiyot namunalari va o'zbek eposining muhim o'mni bor. Ayniqsa, etnofolkloristik materiallar mazkur janrning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bunday manbalar o'lan janrining nainki marosimiy va estetik jihatlarini, balki uning ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda tutgan o'rnini ham yoritib beradi. Shu bilan birga, qadimgi jamiyatning turmush tarzi, oilaviy-maishiy munosabatlari va madaniy an'analarini o'rganishda ham o'lan qo'shiqlari va ular bilan bog'liq ma'lumotlar qimmatli manba sifatida xizmat qiladi. Xususan, xalq og'zaki ijodi an'analarini o'rganish jarayonida o'lan qo'shiqlarining turli ijro shakllari, ularning ijtimoiy vazifalari va ma'naviy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba hisoblanadi.

O'zbek marosim folklorida alohida o'rin tutuvchi o'lan janri asosan nikoh to'ylari va an'anaviy xalq qo'shiqlari tarkibida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ulug' shoir Alisher Navoiy o'zining «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning to'yini tasvirlar ekan, nikoh marosimida ijro etiladigan qo'shiqlarga ishora qilib shunday yozadi:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mug 'anniy tuzib chinga vaznida chang,

Navo chekki hay-hay o 'lang, jon o 'lang [1].

Bu misralar XV asr o'zbek marosim folklorida "o'lang" atamasining nikoh to'ylari bilan bog'liq an'anaviy xalq qo'shiqlaridan biriga nisbatan ishlatilganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida o'lan janri bevosita tilga olinmagan bo'lsa-da, u aruz bahriga mos kelmaydigan she'riy shakllar haqida fikr bildirib, "chinka" janri doirasida o'lan haqidagi qarashlarini keltiradi:

"Yana "chinga"durkim, turk ulusi zufof va qiz ko'churur to'ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag'oyat muassir va ikki nav'dur. Bir nav'i hech vazn bila rost kelmas va bir nav'ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquf bahridur va yor-yor lafzini radif o'rnig'a mazkur qilurdar, andoqkim:

Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor,

Kim damidin tushti o 't jonom aro, yor-yor" [2].

Bu iqtibos o'lan janrining sinkretik va qorishiq tabiatga ega ekanligini, shuningdek, yor-yor va o'lan janrlarining o'zaro yaqinligini tasdiqlaydi. XV-XVI asrlarda xalq orasida o'lan qo'shiqlari yor-yor radifi bilan ijro etilishi keng tarqalgani bu janrning ommaviylici va an'anaviylici haqida guvohlik beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Risolayi aruz" nomli kitobida o'sha davrda xalq orasida qo'shiqning "turkiy", "o'lan" kabi turlari g'oyatda keng tarqalganligi haqida qiziqarli ma'lumotlarni bergen. U "o'lan" janri haqida quyidagilarni yozadi:

"Atrok arosida bir surud borkim, "o 'lan" derlar, aksar to 'ylarda ayturlar, bu vazn anga mavsumdur. Avval surudg'a taqsim qilurda har misradin so 'ng "yor-yor" lafzin keltirurlar Sulton Husayn Mirza zamonida chiqqan «turkiy»ning ayolg'u davrining o'zig'a bu «o 'lan»ni tartib berildi, xeyli raboyanda va yaxshi keldi".

Boburning fikricha, o'lan janri to'y marosimlarining ajralmas qismi bo'lib, uning chiroyli va ta'sirchan qo'shiqlar shaklida ijro etilishi to'ylarning ko'tarinki ruhda o'tishiga hissa qo'shgan. Uning quyidagi baytlari o'lan janriga xos o'zak mazmunlarni namoyon etadi:

Buncha jafo jonica chog 'lamadim,

Dushman emish do 'stlar anglamadim.

Bog ' necha xo 'b esa ko 'yicha yo 'qtur,

Sarvini mavzun desa bo 'yicha yo 'qtur [3].

Taniqli folklorshunos olima M. Alaviyaning ta'kidlashicha, Bobur yozgan "o'lan" bilan Navoiyning «chinka» haqidagi ma'lumotlari bir-biriga to'g'ri keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan keltirilgan o'lan matni o'zining bo'g'inlar soni (ya'ni o'n bir bo'g'indan iboratligi) bo'yicha o'zbek folklorida

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ommalashgan o‘lanning vazn qurilishiga mos kelsa-da, qofiyalanish tartibiga ko‘ra farqlanib turadi. Chunki o‘lan janriga oid matnlarda qofiyaning “a-a-b-a” shakli an’anaviylashgani holda Bobur asarida keltirilgan o‘lan matnida misralar “a-a” shaklida qofiyalangan. Binobarin, Boburning yuqorida keltirilgan “...har misradin so‘ng “yor-yor” lafzin keltirurlar” degan ma’lumotiga mos keladigan o‘lanlar XX asrda yozib olingan folklor materiallari orasida ham mavjud. Bu janrga oid matnlarning ommalashish tarzida ikki holat, ya’ni har bir misradan keyin “yor-yor” takrori qo‘shib aytishi hamda matnning “yor-yor” radifisiz aytishi holati kuzatilgan.

“Navoiy asarlari lug‘ati”da shoir asarlarida qo‘llanilgan folklor terminlaridan biri – “ayolg‘u” atamasiga izoh bergen P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar bu so‘z “o‘lan, ashula, yalla, kuy, ohang, ta’sirli qo‘shiq” ma’nolarida ham ishlatilganligini alohida ta’kidlaydilar [4]. Shunga ko‘ra, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan “ayolg‘u” atamasi “o‘lan” ma’nosida ham ishlatilgan, deb taxmin qilish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida esa “o‘lan”//“o‘lang” so‘zi asosan ayol va erkak jinsiga mansub ikki ijrochi (yoki malakali o‘lanchilar) tomonidan aytishuv tarzida ijro etiladigan, tarixan to‘y marosimi bilan bevosita aloqador bo‘lsa-da, keyinchalik marosim doirasidan chiqib, turli madaniy-ma’rifiy yig‘inlar va sayillarda, shuningdek, u yoki bu yumushni bajarish chog‘ida vaqtini o‘tkazish maqsadida aytishi an’anaviylashib ketgan o‘n bir bo‘g‘inli misralardan iborat xalq qo‘shig‘ining janriy mansubiyatini belgilovchi atama sifatida qo‘llaniladi. Nikoh to‘yida kelinni kuyovning uyiga olib borish va chimildiqqa kiritish jarayonida aytiladigan “yor-yor”larga nisbatan ayrim joylarda “o‘lang”//“o‘lan” atamasi ishlatilsa-da, janr xususiyatiga ko‘ra bunday matnlar marosim folklorining “yor-yor” janri namunasi sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek folklorshunosligida bu janrga oid folklor asarlarini yozib olish, arxivlashtirish va nashr etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o‘lan matnlarini hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli tarzda to‘plash va ularni ilmiy izohlar bilan nashrga tayyorlash ishlari janri o‘rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, o‘zbek xalq ijodining hududiy talqinlaridagi o‘lan matnlarining o‘ziga xosligi, ularning ijro usullari, mazmun va poetik tarkibi, shuningdek, ijro etilish jarayonida qo‘shiqning ichki dinamikasi kabi jihatlar alohida ilmiy tadqiqotlar mavzusiga aylangan.

Bundan tashqari, o‘lan janri bo‘yicha xalq og‘zaki ijodining ijtimoiy-ma’naviy mazmunini ochib beruvchi zamonaviy tadqiqotlar, o‘lan matnlarining boshqa folklor janrlari bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi tadqiqotlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, “yor-yor”, “lapar” singari boshqa janrlar bilan mushtaraklik va farqlarning

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ilmiy talqin qilinishi bu sohadagi tadqiqotlarni boyitib, o‘lan janrini chuqurroq anglashga imkon bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘lan janri o‘zbek folklorida alohida o‘rin tutib, xalqning tarixiy-madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan. Uning Navoiy va Bobur ijodidagi talqinlari esa bu janrning tarixiy ahamiyati va an’analar bilan bog‘liqligini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu talqinlar o‘lan janrining nainki to‘y marosimlarida, balki xalqning estetik didi va ijodiy ongingin shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘lanning xalq og‘zaki ijodi an’analaridagi o‘rni va uning ijtimoiy hamda ma’naviy jarayonlardagi ta’siri yangi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy. Xamsa. “Saddi Iskandariy” dostoni – Toshkent, 1960. – B. 178.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. O‘n besh tomlik. – Toshkent: Fan, 1967. – 272 b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. Nashrga tayyorlovchi: S.Hasanov. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 172.
4. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiev, S.Ibrohimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 1972. – B. 31.